



TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA KANDIGO

Preparatning savdo nomi: Kandigo

Ta'sir etuvchi modda (XPN): klotrimazol

Dori shakli: sirtga qo'llash uchun krem

Tarkibi:

Har bir gramm krem quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: klotrimazol 10 mg;

yordamchi moddalar: setilpalmitat, setostearil spirti, sorbitan monostearati, polisorb -60, oktildodekanol, benzil spirti, tozalangan suv.

Ta'rifi: oq rangli, silliq, qovushqoq, bir xil krem.

Farmakoterapevtik guruhi: Dermatologiyada qo'llaniladigan preparatlar. Dermatologiyada qo'llaniladigan zamburug'larga qarshi preparatlar. Mahalliy qo'llash uchun zamburug'lar ga qarshi preparatlar. Imidazol va triazol hosilalari. Klotrimazol.

ATX kodi: D01A C01.

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Klotrimazol ergosterol sintezini susaytirish orqali zamburug'larga qarshi ta'sir etadi. Ergosterol sintezining susaytirilishi sitoplazmatik membrananing tarkibiy va funksional yetishmovchiligiga olib keladi.

Klotrimazol *in vitro* va *in vivo* sharoitida keng antimikotik ta'sir doirasiga ega bo'lib, u dermatofitlarni, achitqi, mog'or zamburug'larini va boshqa zamburug'larni o'z ichiga oladi.

Tegishli tadqiqotlar sharoitlarida ushbu turdagi zamburug'lar uchun MIC miqdorlari 0,062-8,0 mkg/ml substratdan kamroq doirada bo'ladi. Klotrimazolning ta'sir etish mexanizmi, klotrimazolning infeksiya o'chog'idagi konsentratsiyasiga qarab, fungistatik yoki fungitsid ta'sirga ega. *In vitro* sharoitida faolligi zamburug' elementlari ko'payishiga ta'sir etish bilan cheklangan, biroq zamburug'lar sporlari unga kam sezuvchan.

Klotrimazol, o'z antimikotik ta'siridan tashqari, gram-ijobiy mikroorganizmlarga (*Streptococci/Staphylococci/Gardnerella vaginalis*) va gram-salbiy mikroorganizmlarga (*Bacteroides*) ham ta'sir etadi.

In vitro sharoitida klotrimazol korinebakteriyalar va gram-ijobiy kokklarning 0,5-10 mkg/ml substrat konsentratsiyalarda ko'payishini susaytiradi, enterokokklar bundan mustasno.

Zamburug'lar sezuvchan turlarining birlamchi rezistentligi juda kam hollarda uchraydi, sezuvchan zamburug'larning ikkilamchi rezistentligi rivojlanishi faqat ayrim hollarda terapiya ta'sirida kuzatilishi mumkin.

Farmakokinetikasi

Teriga tashqi qo'llanilganidan so'ng farmakokinetik tadqiqotlarda klotrimazol shikastlanmagan yoki yallig'langan teridan odam qon oqimiga minimal darajada so'rilishi isbotlangan. Klotrimazolning zardobdagi eng cho'qqi konsentratsiyalari 0,001 mkg/ml aniqlash doirasidan kamroq bo'lib, bu klotrimazolning mahalliy qo'llanilishi o'lchanadigan tizimli samaralarga yoki nojo'ya ta'sirlarga olib kelishi ehtimoli kamligini taxmin qilish imkonini beradi.

Qo'llanilishi

Quyidagi kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladi:

— mog'or va boshqa zamburug'lar (masalan, *Trichophyton* turlari) tomonidan chaqiriladigan barcha dermatomikozlar;

- achitqi (*Candida* turlari) tomonidan chaqiriladigan barcha dermatomikozlar;
- ushbu zamburug'lar bilan ikkilamchi infeksiyani namoyish qiladigan teri kasalliklari;
- Kandidoz pelyonkali dermatit, vulvit va balanit.

Qo'llash usuli va dozalar

Krem yupqa qatlam bilan kuniga 2-3 marta surtilishi va ehtiyotkorlik bilan artib tashlanishi kerak. Krem polosalari ($\frac{1}{2}$ sm uzunlikda) kaft o'lchamidagi sohaga ishlov berish uchun yetarli hisoblanadi. Davolashni dermatofit infeksiyalarida eng kamida bir oy va kandidoz infeksiyalarida eng kamida ikki hafta davom ettirish kerak.

Agar infeksiya oyoq yuzi sohasiga tarqalsa, krem surtilishidan oldin oyoqlarni yaxshilab yuvish va ayniqsa, oyoq barmoqlari orasini yaxshilab quritish kerak.

Yosh patsientlar yoki keksa yoshdagi patsientlar uchun maxsus dozalash rejimi yo'q.

Nojo'ya ta'sirlar

Qayd etilgan noxush ta'sirlar spontan xabarlariga asoslanganligi tufayli ulardan har birining paydo bo'lish aniq tezligini belgilash mumkin emas.

Immun tizim tomonidan buzilishlar: allergik reaksiyalar (hushidan ketish, arterial gipotenziya, hansirash, eshakemi).

Teri va teri osti biriktiruvchi to'qima tomonidan buzilishlar: qavariqlar, noqulaylik / og'riq, shish, eritema, yallig'lanish, sho'ralanishlar / eksfoliatsiya, qichishish, toshma, sanchib og'rish / lovullatib achitish.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Ta'sir etuvchi moddaga yoki tarkibidagi yordamchi moddalarning istalgan biriga o'ta yuqori sezuvchanlik.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Laboratoriya testlarida ushbu dori preparati birga qo'llanilgan holatda lateksli kontraseptivlarni shikastlashi mumkinligi isbotlangan. Tegishli ravishda, bunday homilador bo'lishdan saqlaydigan vositalar samaradorligi kamayishi mumkin. Patsientlarga ushbu mahsulotdan foydalanilgandan so'ng eng kamida besh kun davomida muqobil ehtiyotkorlik choralaridan foydalanish tavsiya etilishi kerak.

Maxsus ko'rsatmalar

Ushbu preparat setostearil spirtini o'zida saqlaydi, u mahalliy teri reaksiyalarini (masalan, aloqali dermatitni) chaqirishi mumkin.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishi

Fertillik

Klotrimazolning odam fertilligiga ta'siri yuzasidan hech qanday tadqiqotlar o'tkazilmagan, biroq hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda preparatning fertillikka biron-bir ta'siri isbotlanmagan.

Homiladorlik

Homilador ayollarda klotrimazol qo'llanilishi to'g'risida ancha cheklangan hajmli ma'lumotlar bor. Hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda klotrimazol qo'llanilganida yuqori peroral dozalarda reproduktiv toksiklik isbotlangan. Tashqi qo'llanilganidan so'ng klotrimazolning quyi tizimli ta'sirlarida reproduktiv toksiklikka nisbatan noxush ta'sirlar kutilmaydi.

Klotrimazoldan homiladorlik vaqtida faqat shifokor yoki akusherkaning kuzatuvi ostida foydalanish mumkin.

Laktatsiya

Hayvonlarda foydalanishning mavjud farmakodinamik / toksikologik ma'lumotlari preparat vena ichiga yuborilganidan so'ng klotrimazol / metabolitlarining sutga ekskresiyasidan dalolat beradi. Ko'krakdan emizilayotgan bola uchun xavfni istisno qilib bo'lmaydi. Ko'krakdan emizishni to'xtatish yoki klotrimazol bilan terapiyani bekor qilish / to'xtatib turish to'g'risida qaror bola

uchun ko'krakdan emizish foydasi va ayol uchun terapiya afzalliklari hisobga olingan holda qabul qilinishi kerak.

Avtotransportni va boshqa mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Klotrimazol kremi avtomobilni boshqarish yoki mexanizmlar bilan ishlash qobiliyatiga ta'sir etmaydi yoki biroz ta'sir etadi.

Dozaning oshirib yuborilishi

O'tkir darajali intoksikatsiya xavfi xos emas, chunki buning bir marta mahalliy tashqi qo'llanilishi (absorbsiya uchun qulay sharoitlarda katta maydonda qo'llanilishi) yoki bexosdan peroral yutib yuborilishidan keyingi ehtimoli kam. Spesifik antidot yo'q.

Biroq, tasodifiy peroral qabul qilingan holatda oshqozonni yuvish kam hollarda talab qilinadi va uni faqat oldingi bir soat davomida klotrimazolning hayot uchun xavfli miqdori yutib yuborilgan holatda yoki dozaning oshirib yuborilishi klinik simptomlari shubhasiz bo'lgan (masalan, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi yoki qayt qilish) holatda ko'rib chiqish kerak. Oshqozonni yuvish faqat nafas yo'llari tegishli himoya qilingan holatda amalga oshirilishi kerak.

Chiqarilish shakli

20 g krem aluminiiy tubada.

Har bir tuba tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnoma bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.

Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Muzlatilmasin!

Yaroqlilik muddati

2 yil.

Yaroqlilik muddati tugaganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi

Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili

SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori preparatlarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

"BARAKA DORI FARM" MChJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 91.

Tel.: + 998 78 150 97 97; faks: + 998 78 150 97 87

Uyali tel.: + 998 93 388 87 82

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz